

Date: 5<sup>th</sup>November-2024

**PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING MA'MURIY JAZO CHORALARINI  
QO'LLASH FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI.**

**Maxmudov Xurshidbek Nu'monjon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 313-guruh kursanti

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbli shundaki, ma'muriy javobgarlik choralarini qo'llash va belgilangan jazolarni ijrosini ta'minlash borasidagi muammolarni bartaraf etish borasida turli fikrlar bildirilgan bo'lib bu sohada qator islohotlar olib borilayotgan bo'lsada, jamiyatda sodir etilayotgan mamuriy huquqbazarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini taminlash orqali fuqarolarning qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalash, ularga xurmat hissini shakllantirish, shuningdek, qonunlar, Prezident qarorlari farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarolari va davlat boshqaruvi organlarining mamuriy huquqbazarliklarni oldini olish hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchiliklarni takomillashtirishga doir islohtlari mavzuning dolzarblik darajasini oshiradi

**Annotatsiya:** Актуальность темы данной научной статьи заключается в том, что высказываются различные мнения относительно применения мер административной ответственности и устранения проблем в обеспечении исполнения назначенных наказаний путем обеспечения принципа неотвратимости, воспитания граждан в духе послушания к законам, формируя чувство уважения к ним, а также законы, указы президента, министров Решения судов и реформирование органов государственного управления по профилактике административных правонарушений и совершенствование законодательства об административной ответственности повышают уровень актуальности темы

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya profilaktika inspektori, ma'muriy jazo huquq qonun qaror farmon farmoish harakatlar strategiyasi sud huquq tizmi erkinlik.

El-yurtimizning ishonchi va mehrini qozongan, tom ma'nodagi xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning muvaffaqiyati, avvalo, huquqbazarliklar barvaqt profilaktikasi va oldini olish faoliyatining samaradorligini oshirish bilan uzviy bog'liq, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mustaqillik yillarida respublikamizda huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda ichki ishlar organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishildi. «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e'lon qilingan 2017 yilda «**Inson manfaatlari hamma narsadan ulug'**» degan g'oya asosida jamiyat hayotining barcha sohalarida tizimli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, o'tgan qisqa vaqt mobaynida mamlakatimizda huquqbazarliklar profilaktikasi sohasida salmoqli ishlar qilindi. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiya”si asosida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh

Date: 5<sup>th</sup>November-2024



qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash yuzasidan qator isohotlar amalga oshirilmoqda.

Amalga oshirilib kelinayotgan keng ko'lamli islohatlar milliy davlatchilik va suverinitetini mustahkamlash, xavfsizlik va huquq tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligi, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va milliy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'lmoqda hamda xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqorolarimizning buniyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqrish uchun zarur shart-sharoitlar yaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi xalqaro e'tirof qilingan normalar asosida va xalqning milliy an'analari, urfatlarini xisobga olgan xolda, fuqorolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini davlat va jamiyat manfaatlarini mustahkam kafolatlangan tarzda himoya qilishni ta'minlash asosida og'ishmay va izchillik bilan harakat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan va 1995 yil 1 apreldan boshlab amalga kiritilgan. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 1-moddasiga binoan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Kengashining qarorlari;
- Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlaridan iboratdir.

Yuqorida keltirib o'tilganlardan kelib chiqib Profilaktika inspektorining mamuriy javobgarlikni taminlash faoliyatini takomillashtirish faoliyatiga huquqiy asos qilib quyidagilarni ham olishimiz mumkin: 2014 yil 14 maydag'i "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun; 2016 yil 16 seniyabirdagi "Ichki ishdar organlari to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi , 2017-yil 10apreldagi PQ-5005-sonli " Ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan oshirish, jamoat tartibi , fuqorolar huquqlari, erkinliklari va qonun manfatlarni ishonchli himoyaqilishi taminlashda ularning ma'sulyatini kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2017- yil 12- apreldagi PQ-2883-sonli "Ichki ishlar organlar faoliyatining yaanada takomillashtirish doir tashkiliy chora tadbirlar to'g'risida"gi , 2017- yil 18- apreldagi PQ-2896-sonli "Ichki ishlar organlarining

Date: 5<sup>th</sup>November-2024



huquqbazarliklar profilkikasi bo'limlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ma'muriy jazoga tortilgan shaxslarni markazlashtirilgan xisobga olish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Ichki ishlar organlarining Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida, 2021 yil 2-aprerdagi O'zbekiston respublikasi prezidentining 5050-sonli qarori, Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2021 yil 26-aprel'dagi qarori, Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida 2021 yil 5-aprel'dagi O'zbekiston respublikasi prezidentining 5076-sonli qarori, Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida 2021 yil 16-aprel'dagi O'zbekiston respublikasi prezidentining 5077-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish choratadbirlari to'g'risida 2021 yildagi O'zbekiston respublikasi prezidentining 27-sogli farmoni farmoni, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida 2021 yil 19-apreldagi 23-son O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori. 2017-yil 12-iyuldaggi 151-sonli, "Ichki ishlar organlari tomonidan huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirish tartibi to'grisidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqidagi" 2017-yil 25-avgust 191-sonli buyruqlari hamda boshqa normativ huquqiy hujjatlari. 2022-2026 yillarga mo'llajallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yilda farmoni.shu farmon asosida mamlakatimizni 2017 — 2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. SHuningdek, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqr qayta ishslashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'naliishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rirlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Jamiatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarda qonun buzilishiga murosasizlik munosabatini shakllantirish, ularga qonunga itoatkorlik xulq-atvorini hamda inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish hissini singdirish bo'yicha ichki

Date: 5<sup>th</sup>November-2024

ishlar organlari huququzarliklar profilaktikasi bo'linmalarini tomonidan quyidagi ishlar samarali tashkil etilmoqda:

0. jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarda qonun buzilishiga murosasizlik munosabatini shakllantirish, ularga qonunga itoatkorlik xulq-atvorini hamda inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish hissini singdirish maqsadida aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'yicha ishlarni tashkil etish;

1. aholi o'rtasida huquqiy bilimni targ'ib qilish va qonunchilik normalari mazmun-mohiyatini, shuningdek, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalarini tushuntirishda ishtirok etish; huququzarliklardan jabrlangan shaxslar, g'ayriijtimoiy xulqli, huququzarliklarni sodir etishga moyil va sodir etgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish hamda ijtimoiy moslashtirish choratadbirlarini amalga oshirish;

2. jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilishni amalga oshirish va tashkil etish, ularning murojaatlarini qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqish va hal etishni ta'minlash;

3. aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'yicha axborot, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirilishini ta'minlash;

4. aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot va ma'rifat ishlarni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish.

Ichki ishlar organlari Profilaktika inspektorining mamuriy javobgarlikni taminlash faoliyatida ma'muriy huququzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish vazifalari: har bir ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama, to'la va ob'yektiv ravishda aniqlab chiqishdan, bu ishni qonun hujjatlariga muvofiq holda hal etishdan, chiqarilgan qarorning ijrosini ta'minlashdan, shuningdek ma'muriy huququzarlik sodir etish sabablari va bunga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlashdan, huququzarliklarning oldini olishdan, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashdan, qonuniylikni mustahkamlashdan iboratdir.